

## YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY G'OYA TAMOYILLARINING AHAMIYATI

**Abdurasulov Muxtorbek Bo'ri o'g'li**

*Termiz Davlat Pedagogika instituti, Pedagogika*

*va ijtimoiy fanlar fakulteti, Milliy g'oya,*

*ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi, talabasi*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda milliy g'oya tamoyillarining o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Muallif huquqiy madaniyatni shaxsning huquqiy ongini, xulqini va qadriyatlarini ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida sharhlab, uning rivojlanishida milliy g'oya tamoyillarining asosiy mafkuraviy omil bo'lib xizmat qilishini asoslab beradi. Tadqiqotda huquqiy madaniyatni shakllantirishning ma'naviy asoslari, yoshlar ongida milliy qadriyatlar, Vatanga sadoqat, adolat va qonun ustuvorligi g'oyalarini singdirishning pedagogik va ijtimoiy mexanizmlari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** Yoshlar, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, milliy g'oya, ma'naviy tarbiya, huquqiy qadriyatlar, Vatanga sadoqat, fuqarolik ong, huquqiy mas'uliyat, adolat.

Bugungi globallashuv va axborot makoni kengayib borayotgan davrda yoshlar ongi va dunyoqarashi ustida kuchli mafkuraviy kurash kechmoqda. Bu jarayonda huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasi har bir davlat uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki huquqiy madaniyati yuksak shaxs - bu qonunga itoatli, mas'uliyatli, ijtimoiy faol fuqaro demakdir. Shu bilan birga, bu jarayonning mafkuraviy poydevorini milliy g'oya tashkil etadi. Milliy g'oya yoshlarning huquqqa, adolatga, Vatanga bo'lgan sadoqatini mustahkamlovchi ruhiy-axloqiy omil sifatida huquqiy madaniyatni yuksaltirishda beqiyos o'rin tutadi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Huquqiy madaniyatni oshirish - bu shunchaki qonunni bilish emas, balki insonning ichki dunyosida qonun va adolatni hayotiy qadriyat sifatida his qilishidir.”[1.79].

Huquqiy madaniyat - bu shaxs va jamiyatning huquqqa munosabatini, qonunlarni bilish darajasini, ularga amal qilish madaniyatini ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisadir. U uch asosiy tarkibiy qismdan iborat:

Huquqiy ong - qonunlarni bilish va anglash jarayoni;

Huquqiy xulq - huquqiy bilimlarni amalda qo'llash;

Huquqiy qadriyat - qonuniylik va adolatni e'tiqod darajasida qadrlash.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar huquqiy madaniyatini oshirish “Yoshlar siyosati to'g'risida”gi Qonun [4] va “Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi Prezident farmoni orqali davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Huquqiy madaniyatni rivojlantirishning poydevori - huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot va eng asosiysi, milliy g'oya tamoyillariga tayanadigan ma'naviy muhitdir. Chunki huquqiy bilimlar shaxsning ichki dunyosida ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashmasa, u faqat nazariy bilim sifatida qolib ketadi.

Milliy g'oya xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlarini, qadriyatlari va maqsadlarini mujassamlashtirgan mafkuraviy tizimdir. Muhtaram birinchi yurtboshimiz I.A. Karimov bu borada shunday degan edi: “Milliy g'oya - xalqni birlashtiruvchi, uni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi ruhiy kuchdir.” [2.15]. Shunday ekan yoshlar ongida milliy g'oya tamoyillari - Vatanga sadoqat, qonun ustuvorligiga ishonch, mehnatsevarlik, adolat va halollik kabi qadriyatlarni singdiradi. Bu qadriyatlar esa huquqiy madaniyatning ichki mazmunini belgilaydi. Shu jihatdan, milliy g'oya huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi ideologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, vatanparvarlik hissi kuchli bo'lgan yosh qonunga nisbatan befarq bo'lmaydi, uni o'z Vatanini asrash vositasi sifatida ko'radi.

Milliy g'oya tamoyillari yoshlarning huquqiy ongini mustahkamlashga xizmat qiladi, huquqiy madaniyat esa bu g'oyalarni amaliyotga tatbiq etadi. Shunday qilib, ular bir-birini to'ldiruvchi ikki tizimdir.

Rossiyalik olim V.N. Kudryavtsev fikricha: "Huquqiy madaniyat inson tafakkurining ijtimoiy shaklidir, u milliy ong va milliy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq." [5-46].

. Demak, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda milliy g'oyani asosiy mafkuraviy vosita sifatida qarash zarur. Ayniqsa, yoshlar uchun bu - o'zligini anglash, milliy manfaatlarni himoya qilish, ijtimoiy adolat tamoyillarini qadrlash imkonini beradi.

Milliy g'oyaga asoslangan huquqiy tarbiya tizimi yoshlar ongida quyidagi fazilatlarni shakllantiradi:

Qonun va tartibga hurmat;

Huquqiy mas'uliyat hissi;

Adolat, tenglik, vijdonlilik qadriyatlari;

Fuqarolik faolligi.

BMTning "Yoshlarning huquqiy imkoniyatlarini kengaytirish" [6-77] hisobotida ta'kidlanganidek, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda milliy qadriyatlar asosidagi yondashuv eng samarali usul hisoblanadi, chunki u shaxsda "o'z qonuni, o'z jamiyati" degan mas'uliyat hissini uyg'otadi. O'zbekistonda bu yo'nalishda "Yoshlar daftari", "Huquqiy axborot kuni", "Huquqiy savodxonlik haftaliklari" kabi dasturlar yoshlarning huquqiy ongi va milliy o'zligini uyg'un holda shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish - bu nafaqat qonunni o'rgatish, balki milliy g'oya tamoyillariga asoslangan ma'naviy muhitni yaratishdir. Chunki milliy g'oya - huquqiy tarbiyaning ichki ruhiy manbaidir. Agar yoshlar qonunga bo'lgan hurmatni Vatanga muhabbat, adolatga ishonch, halollik kabi milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtira bilsa, u holda huquqiy madaniyat chuqur ildiz otadi. Islom Karimov fikri bilan aytganda: "Huquqiy bilim va milliy g'oya uyg'unligi - yosh avlodning eng katta ma'naviy boyligidir." [3-143].

Shunday qilib, yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishda milliy g'oya tamoyillarini tatbiq etish O'zbekistonning barqaror taraqqiyoti, fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi va ma'naviy xavfsizligini ta'minlovchi eng muhim omillardandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. – T.: O'zbekiston, 2022. – 79 b.

Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O'zbekiston, 1997 – 15 b.

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 143 b.

O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Yoshlar siyosati to'g'risida". – 2016-yil, 14-sentabr.

Kudryavtsev V.N. Pravo i obshchestvo. – M.: Norma, 2005. – 46 b.

UNESCO. Empowering Youth through Legal Literacy. – P.: UNESCO Publishing, 2018. – 77 b.